

SABR VA UMID MASALALARI: RUHIY VA MA'NAVIY TAHLIL

O'rozboyeva Qunduzoy Islom qizi

ToshDO'TAU universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Daniel Defoe'ning "Robinzon Kruzo" asari adabiy va tarbiyaviy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda bosh qahramonning og'ir hayot sinovlari, mehnatsevarligi, qat'iyati va irodasi orqali insonning yashashga bo'lgan intilishi yoritiladi. Muallif Robinzon obrazida insonning aql-zakovati, tirishqoqligi va hayotga moslasha olish qobiliyatini ko'rsatadi. Maqolada asarning o'quvchiga beradigan ma'naviy saboqlari, xususan mehnatning qadri, intizom va umidning ahamiyati tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *iroda, mehnat, qat'iyat, intizom, umid, hayot sinovlari, ma'naviy saboq.*

Annotation: *This article analyzes Daniel Defoe's "Robinson Crusoe" from a literary and educational perspective. The story highlights the protagonist's ability to strive for survival through life's hardships, diligence, determination, and strong will. Through the character of Robinson, the author demonstrates human intelligence, perseverance, and the capacity to adapt to life. The article examines the moral lessons the work imparts to readers, particularly the value of labor, discipline, and hope.*

Keywords: *willpower, labor, determination, discipline, hope, life challenges, moral lesson.*

Аннотация: *В данной статье анализируется произведение Даниеля Дефо «Робинзон Крузо» с литературной и воспитательной точки зрения. В центре внимания — способность главного героя преодолевать жизненные трудности благодаря трудолюбию, настойчивости, решительности и силе*

воли. Через образ Робинзона автор показывает человеческий ум, усердие и способность приспосабливаться к жизни. В статье рассматриваются нравственные уроки, которые произведение даёт читателю, в частности ценность труда, дисциплина и надежда.

Ключевые слова: *воля, труд, настойчивость, дисциплина, надежда, жизненные испытания, нравственный урок.*

Daniel Defoe'ning "Robinzon Kruzo" asari insonning og'ir sinovlarga bardosh bera olishi, kuchli iroda, aql va mehnat orqali yashab qolish imkoniyatini ko'rsatadigan sarguzasht romandir [1]. Asarda bosh qahramon Robinzonning insoniy fazilatlari, irodasi, muloqotga bo'lgan ehtiyoji, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati va mehnatga munosabati orqali o'quvchiga hayotiy saboqlar beriladi.

Asar o'z-o'zini tartibga solish g'oyasiga asoslanadi. Kimsasiz orolda qolgan Robinzon avvalo kun tartibini tuzadi: ibodat qiladi, ov qiladi, o'zini oziq-ovqat bilan ta'minlaydi va kunlik rejalari bilan shug'ullanadi. Shu intizom tufayli u odamiylik qiyofasini saqlab qoladi. Asarda bu holatni ifodalashda shunday so'zlar keltiriladi: "Shunda ham hayotimni me'yorda davom ettirishga harakat qilardim." Robinzon har kuni kechga yaqin vaqtini kundaligini yuritishga ajratadi, bu esa uning ruhiy sog'lig'ini saqlash va vaqtning qadrini bilishda muhim vosita bo'ladi.

Asarda mehnat alohida qadrlanadi. Robinzon o'z ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyatlar cheklangan bo'lsa-da, barcha narsani o'zi yaratadi. U mustahkam yashash joyi — qal'a quradi, mebel yasaydi, bug'doy ekadi, hatto tikuvchilikni ham o'rganadi. Hatto ulkan qayiq yasab, uni suvga tushirishga harakat qiladi. Bir yildan ortiq vaqt sarflansa-da, qayiqni siljitolmaydi. Shunga qaramay, Robinzon qilgan mehnatidan pushaymon emas: "Bu vaqt men uchun haqiqiy baxt edi" degan iqtibos orqali mehnatning ichki ruhiy taskin beruvchi kuchi ko'rsatiladi [2, 45].

Muloqot yetishmovchiligi Robinzon uchun eng og'ir sinovlardan biridir. U odamiylikdan yiroqlashib ketmaslik uchun to'tiqushni gapirishga o'rgatadi. Yangi

do'sti Juma bilan uchrashgach, unga ingliz tilini o'rgatadi, madaniyat va ijtimoiy odoblarni tanishtiradi. Robinzonning so'zlari bu jarayonni ta'sirli ifodalaydi: "Men Jumaning og'zidan birinchi marta chiqayotgan so'zlarni tushunmadim, ammo bu menga zavq bag'ishlardi – axir men 25 yildan beri birinchi bor inson ovozi eshityapman!" Bu iqtibos orqali muloqotning, insoniy aloqaning va yolg'izlik ruhiy iztiroblarining ahamiyati o'quvchiga chuqur yetkaziladi.

Asarda Robinzonning kelajakka bo'lgan umidi ham muhim o'rin tutadi. U oroldan qutulishiga ishonadi va orzularini yo'qotmaydi. Har kuni uni orzusi sari bir qadam yaqinlashtiradi. Hatto u Angliyaga qaytgach nima qilishini rejalashtiradi. Bu – inson ruhiyatining sinmasligini ifodalaydi [3, 10].

Daniel Defoe bu asar orqali o'z davrining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy holatini ham tanqid qiladi. Robinzon jamiyatdagi utopik muhitni qoralaydi va insonning ongli hayot kechirishi, erkin fikrlashi hamda mehnat bilan erishgan muvaffaqiyatining ahamiyatini ko'rsatadi.

Asar aslida kattalar uchun yozilgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan bolalar adabiyoti sifatida mashhur bo'lgan. Sovet davrida Korney Chukovskiy tarjimasida dinga oid qismlar olib tashlangan. Bosh qahramonning prototipi – shotlandiyalik dengizchi Aleksandr Selkirk bo'lib, u Tinch okeanidagi orolda 4 yil yashagan. Bugungi kunda bu orol "Robinzon Kruzo oroli" deb ataladi.

E'tiborga molik jihatlardan biri – Robinzonning hech qanday moddiy vositasiz, bir funt ham sarf qilmasdan o'z ehtiyojlarini ta'minlashi. Bu hayotda mablag' emas, balki aql, iroda va mehnatning muhimligini ko'rsatadi. Asarda ko'rinib turibdiki, Robinzon orolga kelgan paytda oddiy kemadagi ekipaj a'zosi bo'lgan, ammo vaqt o'tishi bilan u turli hunarlarni egallaydi: duradgor, dehqon, ovchi, hatto tikuvchi bo'ladi [4, 214]. Bu insonning cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, asarda ilohiy rizq g'oyasi ham chuqur ifoda etilgan. Robinzon yolg'iz va hech narsasiz orolda bo'lsa-da, Alloh unga hayot kechirish uchun zarur ne'matlarni yaratadi: mevalar, hayvonlar, toza suv va o'z-o'zidan unib chiqqan

bug‘doy. Robinzonning bu hodisaga bo‘lgan hayratini ko‘rish orqali Allohning marhamati va har bir tirik jonga atalgan rizq mavjudligi ramziy ifodalanadi. Shu bilan birga, inson mehnati bilan ilohiy qudrat, sabr va shukronalikning uyg‘unligi ko‘rsatiladi.

Robinson Kruzo asari – faqat sarguzasht emas, balki hayot darsi, o‘zini anglash, sabr, mehnat, intizom va umid haqida hikoya. Asarda insonning yakkalikdagi kurashi, muloqot ehtiyoji, aqliy va jismoniy kuchi, kelajakka bo‘lgan umidi o‘quvchini chuqur o‘ylantiradi. Robinzonning oroldagi hayoti insonning cheksiz imkoniyatlarini ochib beradi, u turli hunarlarni o‘zlashtirib, o‘z mehnati bilan yashashni o‘rganadi. Shu orqali muallif hayotda moddiy boylik emas, balki insonning iroda, mehnatsevarlik va tafakkuri eng katta kuch ekanini ko‘rsatadi. Asarda ilohiy rizq va shukronalik g‘oyasi ham chuqur aks etgan bo‘lib, inson hayotida Yaratganning marhamati va inson mehnati uyg‘unligi tasvirlanadi.

Robinson Kruzo bizga shuni o‘rgatadiki, inson qanday vaziyatda bo‘lmasin, agar u sabr, iroda va ishonchini yo‘qotmasa, har qanday to‘siqni yengib o‘tadi. Defoe bu asari orqali o‘z zamonasining adabiy va ijtimoiy mezonlarini ham aks ettirgan. Shu sababli “Robinson Kruzo” nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham o‘qilishi lozim bo‘lgan, 300 yildan beri qadri yo‘qolmagan adabiy xazina hisoblanadi.

Reference

1. Defoe D. Robinson Kruzo: Hayoti va ajoyib sarguzashtlari. – Toshkent: Cho‘lpon, 1994. – 192 b.
2. Hakimova M. Robinson Kruzo asari va undagi badiiy obrazlar haqida // Adabiyotshunoslik masalalari. – 2005. – № 3. – B. 45–52.
3. Zohidov A. Oroldagi haqiqiy Robinson // O‘zbekiston tarixiy-jurnalistik nashrlari. – 2010. – № 2. – B. 10–18.
4. Lefevre P. Robinson Crusoe: Cultural Interpretations and Adaptations. – London: Routledge, 2012. – 214 p.4.
5. Асадов М. (2020) Альбер Камю ва Хуршид Дўстмуҳаммад прозасида абсурд қаҳрамон муаммоси/ “Сўз санъати сўзлиги”, 3 жилд, 2 – сон. Тошкент. 2020 йил. – Б.117 – 126.
6. АСАДОВ, М. (2022). “ЁЛФИЗЛИК МОТИВИ” НИНГ ПОЭТИК ТАЛҚИНИ. SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, 1(1).
7. Amirqulov D. The TAQLID SO ‘ZLARNING O ‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O ‘RNI VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 01.